




Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 9-noyabr, payshanba,
133 (23.852)-son

**KUN
HIKMATI**
Oqil kishilar
ixlos, niyat va
muruvvatni
pinhon
saqlaydi

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



BUGUNNING HAR DAQIQASI G'ANIMAT

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Jomboy tumanida yashil maydonlarni kengaytirish, yo'libo'yi infratuzilmasini yanada rivojlantirish borasidagi ishlarni ko'zdan kechirdi.

Tuman mas'ullariga yo'l yodogalar va bo'sh joylarda ayni kunlarda davom etayotgan "Yashil makon" loyihi-si doirasidagi kuzgi ko'chat ekish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarni keng ko'lama olib borish yuzasidagi topshiriqlar berildi.

Yo'l bo'yidagi avtomobilarga yolg'i quyish shoxobchalari, ustaxonalnar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish markazlari hududini obodonlashtirish, haydovchi va yo'lovchilarga qulaylik yaratish, sanitariya-gigiyena

nuqtalarining talab darajasida ishlashi ni ta'minlash masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Daraxt ko'chatlari va gullar ekish bilan cheklanib qolmay, ularni parvashlash, birinchi navbatda sug'orish tizimini yaratish zarur, - dedi Erkinjon Turdimov.

Shuningdek, o'rganish davomida fermer, dehqon xo'jaliklari hamda aholi tomorqalarida yerdan samarali foydalanish, jumladan, "to'qsonbosti" usulida ekin ekish lozimligi ta'kidlandi.

MAKTABLAR QISHGA TAYYORMI?

Kuzning so'nggi oyi. Kunlar ancha salqin bo'lib qoldi. Erta-indin qorli-qirovli damlar keladi. Shunday paytda birinchi navbatda yashab turgan uyingiz, ish yoki o'qish joyingizning issiq bo'lishiga ehtiyoj tug'iladi. Ayniqsa, ta'lif muassasalarining yetarli darajada issiqlik ta'minoti bilan ta'minlanishi muhim talab hisoblanadi.

O'tgan yil qishda kuzatilgan anomaloussovudagi holatdan kelib chiqib, bu yil ta'lif va tibbiyot muassasalarini isitishda muqabil energiya malaridan foydalanih, tizimga davlat-xususiy sherlik tamoyilini joriy etishga e'tibor qaratilmoqda.

Samarqand tumanidagi 54 ta umumiyo'rta ta'lif maktobi binolari bu yilgi kuz-qish mavsumida shu tizim asosida isitilishi mo'ljallangan. Bu vazifani bajarishni o'z zimmasiga olgan "Badal qurilish mahsulotlari savdo" xususiy korxonasi rahbari Zarshid Adashevning aytishicha, hozirda yetarli miqdorda ko'mir zaxirasi yaratigan. Ayni paytda maktablardagi mavjud isitish qozonlarini almashtirish choralar ko'rilmoqda.

- Shu paytgacha maktablardagi isitish tarmoqlarini ko'zdan kechirib, zarur yumushlarni bajardik, - deydi Z. Adashev. - Ko'mir saqlash uchun omborlar tashkil qildik, qozonxonalarni ko'rib chiqdik. Endi ko'mirga moslashgan qozonlarni o'rnatalishimiz kerak. Bu uskulalarni xorijdan keltirdik va bir hafta ichida o'rnatalib bo'lamiz.

Tumanning O'zbekkent mahallasida joylashgan, ming nafarga yaqin o'quvchi ta'lif olayotgan 20-maktab direktori Shahnoza Zohidovaning ma'lum qilishicha, ta'lif muassasasi shu paytgacha tabiy gaz bilan isitilgan va bu borada hech qanday muammo bo'imagan.

- Bu yilgi mavsumidan maktab tadbirdor ko'magida ko'mir bilan isitilar ekan, - deydi Sh. Zohidova. - Shu paytgacha ishchilar ichki tarmoqlarni ko'zdan kechirdi, endi ko'mirga moslashgan qozonlar o'rnatalishi aytilmoqda. Lekin

hozir hech narsa bilmaymiz, bu o'zini oqlaydimi, yo'qmi, vaqt ko'rsatadi. O'tgan yilgi anomal souvuq paytlarida



ham bizda muammo kuzatilmagandi. Issiqlik tizimi barqoror ishlab turgandan. Niema bo'lganda ham bish uchun mak-

tab issiq bo'lsa, o'quvchilari

mas'ulimotda qayd etilishicha, tumandagi 800 nafar o'quvchi ta'lif oladigan 56-ixtisoslashtirilgan davlat umumita'lif maktabi ko'mir bilan isitiladi. Joriy kuz-qish mavsumi uchun maktabda 48 tonna ko'mir zaxira qilingan. Ammo ko'mir saqlash uchun omborxona mavjud emas. Olti dona isitish qozonxonasida ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

21-, 24-, 26-umumiyo'rta ta'lif maktablari, 15-, 28- va 31-maktabgacha ta'lif tashkilotlarda ham zarur miqdorda ko'mir keltirilib, zaxira qilinjan. Ammo barcha muassasalarda ham isitish qozonlari va tarmoqlar mavsumoldi sinovdan o'tkazilmoqdan.

- O'rganish yakunlari Jomboy tumanı mas'ulilari bilan muhokama qilib, ischi guruh tomonidan aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidagi o'z tavsiyalarni berdi, - deydi "Yuksalish" umumimiliy harakati viloyat bo'linmasi rahbari Elyor Hamroyev. - Mutasaddilar tomonidan chora-tadbirlar belgilanib, kamchiliklarni qisqa fursatlarda hal etish belgilandi. Bu kabi jamoatchilik nazorati tadbirlari boshqa tumanlarda ham o'tkazilmoqda.

G'.HASANOV,
A.ISROILOV (surat).

SAMARQAND KANADADA NAMOYISH ETILMOQDA

Shu kunlarda Kanadaning Montreal shahrida o'tkazilayotgan "Montreal International Tourism and Travel Show-2023" turizm yarmarkasida viloyatimiz vakillari ham ishtirok etmoqda.

Yuzga yaqin mamlakatdan 50 ming nafar turizm sohasi vakillari ishtirok etayotgan ko'rgazmada Samargandning turizm salohiyati, sayyoohlар uchun yaratilgan infratuzilma obyektlari, boy tarixiy-madaniy meros ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

- Yarmarkaning birinchi kuni xorijiy kompaniya va turizm sohasi vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazidik, - deb yozadi viloyat turizm boshqarmasi bo'lim boshlig'i Jasur Rahmonov ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida. - Shuningdek, "Samarqand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" taqdimoto ham bo'lib o'tdi. Mazkur taqdimoto dan so'ng qator sayyoohlар kompaniyalari va xorijiy davlatlarning turizm idoralarini vakillari o'tasida qo'shma turizm turlarni tashkil etish masalalari yuzasidan kelishuvlarga erishdik. Jumladan, Xitoga boruvchi sayyoohlар uchun O'zbekiston orqali turlarni amalga oshirish, mamlakatimiz turizm mahsulotlarini taqdim etishda hamkorlik qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazildi.



Dilorom MAMASHARIPOVA,
O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi:

OBUNA -
2024

- 43 yildan buyon o'qituvchiman,
Oqdaryo tumanidagi 45-maktabda
matematika fanidan dars beraman.
"Zarafshon" yarim asrlik hamrohim,
har yili obuna bo'laman va
viloyatimizdag Yangiliklarni
shu nashrdan o'qiyman.
Sizni ham "Zarafshon" ga
obuna bo'lishga chaqiraman.



**Jamoatchilik
kengashlari o'z
vazifasini bajaryaptimi?**

Jamoatchilik kengashlari nima? Hokimiyat tizimida qonunbuzarlik va korrupsiya holatlarining oldini olishda ularning o'rni bormi?

Samarqand shahridagi "Do'stlik uyi"da "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik kengashlari: huquqiy asoslar va xalqaro tajribasi" mavzuida o'tkazilgan davra suhbatida shu savollar atrofida fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi jamoatchilik kengashi raisi, yuridik fanlari doktori Foziljon Otaxonov, Oliy Majlis Senati a'zosi Farmon Toshev ushbu tuzilmanining huquqiy asoslar, jamiyat rivojadagi ahamiyati, ijtimoiy foydalar xususida so'z yuridi.

- Mamlakatimiz rahbari har bir chiqishida ja-moatchilik nazoratiga e'tibor qaratadi, - deydi Demokratiya va inson huquqlari instituti direktori, Adliya vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi raisi o'rgebnasori Sayyora Xo'jayeva. - Davlat boshqaruvi organlari huzurida tashkil etilgan jamoatchilik kengashlari mana shu ishni amalga oshirishda muhim mezon vazifasini o'tashi lozim. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifasi qabul qilinayotgan normativ hujjatlarda, qarorlarda jamoatchilik manfaatlari va fikri hisobga olinishi, hokimlik zimmasiga yuklangan hamda jamoatchilik manfaatlari daxil qiluvchi vazifalarni bajarish, davlat xizmatlari ko'rsatishda hokimlik va uning mansabdar shaxslari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdir. Ya'ni, hokimlik fuqarolar bilan bog'lab turadigan ko'priq vazifasini bajarishi lozim.

Jamoatchilik kengashi hokimlik faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tashabbus va murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi. Shuningdek, hokimiyat faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ulardagagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi kerak.

Tadbir davomida ba'zi faktlar aytib o'tildi. Misol uchun, 2020-yilda 1723 nafar mansabdar shaxsing korrupsiya bilan bog'liq harakatlari aniqlangan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'sratich 2800 tani tashkil etgan. Birgina 2021-yilning o'zida korrupsiya tufayli davlatga yetkazilgan ziyon 918 milliard so'm bo'lgan. Bu budget mablag'larining samarasiz ishlatilgani, talon-toroj etilgani yoki ushbu mablag'dan noto'g'ri foydalanilganini anglatdi. Bu kabi holatning oldini olish uchun amaliy ishlari bajarishmoqda. Xususan, tashabbusli budget tizimi yo'liga qo'yildi, davlat xaridlar ochiqlik principi assosida amalga oshirilmoqda, hokimlar aholi bilan dolim mulqot olib bormoqda. Jamoatchilik kengashlari mana shu jarayonlarga o'z munosabatini bildirishi, zarur choralar qo'llashi lozim.

Anjumanda davlat idoralari vakillari bilan bir qatorda mazkur kengash a'zosi sifatida ishlashi mumkin bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari ham ishtirok etib, o'z taklif va mulohazalarini bildirdi.

Gulruh MO'MINOVA.

↓ Tibbiyot xodimlari kuni oldidan

30 yil - bu yuzlab oilalarda uzoq azoblardan keyin kelgan quvonch yoshlaridir. 30 yil - minglab bolajonlarning yashashi uchun lozim bo'lgan kundalik ehtiyojar... 30 yil - qanchadan-qancha farzandlarning sog'lom tug'ilishi uchun yo'naltirilan sa'y-harakatlardir.



Tibbiyotga aloqador eng halol tashkilot

"Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi viloyat bo'limini tibbiyotga ozgina bo'lsa-da, daxldor inson yaxshi biladi. Bu tashkilot uzoq yillar davomida qiyin sharoitlarda ishladi, oddiy avtomobili yo'q kundarda ham viloyatning eng chekka hududlariga borib, dori tarqatgani, odamlarni bepul tekshiruvdan o'tkazganiga guvoh bo'ldik. O'z xonasini isitilmaydigan sharoitda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun aravacha deysizmi, zarur uskunalarimi, hech og'riňmay tarqatdi. Ular har doim bu mehnatlariga yarasha rag'bat olmagan, nazarimda. Nega deysizmi? Keling, mavridi ekan, o'zim guvoh bo'lgan bi veojeani aytil beray.

O'shanda tumanlarda elektr energiyasi bilan bog'liq muammolar ko'p, shifoxonalar ham yaxshi istilmaydigan yillar edi. Mazkur tashkilot vakillari bilan chekkaroq tumanlар dan biriga bordik. Xonalarni sovgu bo'lishiga qaramay, jamg'armaning viloyatdagi xodimlari darhol ishlaga kirishib ketdi. Birin-ketin aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazib, zarur dorilar ni tarqata boshladи. U paytlari hozirgiday chekka hududlarda ommayvi tibbiy ko'riklar o'tkazilmas edi, shuning uchun odam ancha yig'ilib qolgan. Tushlik vaqtgi bo'ldi hamki, ular odamlar sarson bo'lmasisin, deya ishini davom ettirishi. Xodimlar o'zlarini o'yashmas, uzoq qishloqlardan kelgan odamlar qiyalishmasin, ertaroq uyiga yetib olsin, deb qayg'urardi. Hayron qolgan tomonim, o'z hududi aholisiga xizmat ko'rsatayotgan bu fidoyilarga shu yerning tibbiyot xodimlari aqallib bir choynak choy damlاب bermaqanida edi. Eng qizig', kunduzgi soat to'rtidan keyin poliklinikada gi xona egasi eshkini quiflayman, ishingizni tugata qoling, degani bo'ldi. To'g'risi, bu holatdan yanayam hayratim oshdi.

"E'tibor bermagan, bunday vaziyatga birinchil bos tushishimiz emas", deya kulib qo'ya qolishdi "Sog'lom avlod"chilar o'z ishini davom ettirir ekan.

Keyinchalik ularning bunday fidoyiliklari yana ko'p marta guvoh bo'ldim. Eshigimizni tebib kirishgan, "nega falonchingin be-pul operatsiyasiga yordam berasisz-u, bizga ko'mak yo'q", deydiganlarni uchratdik. Bepul tarqatilishi kerak bo'lgan dori-darmonlarni olib, uni sotishga uringanlarni ham ko'rdik. Lekin qanday bo'lmisin, bemon onalarga, bolalarga tegishli bo'lgan malhamalar o'z egalariiga yetib borishiga urindik.

Ha, o'tgan 30 yil davomida "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'arma-sini viloyat bo'limi ko'plab oilalarga yordam qo'lini cho'zishi baroberda, o'zlar ham talaygina qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Bugun ular zamonaviy avtoambulanslarga

ega. Boradigan hududlarida ham ilgarigiday murakkabliklarga duch kelishmaydi.

Yaqinda mazkur tashkilotning 30 yilli-gi munosabati bilan o'tkazilgan yig'inda ishtirot etar ekanman, yuqoridaq holatlar ko'z o'ngimida namoyon bo'ldi. Ularni qutlash uchun yig'ilgan hamkor tashkilotlar ham Rahima Rahmonova boshchiligidagi "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi viloyat bo'limi xodimlarining samimiy, chin dildan amalga oshirayotgan mehnatlarini takror-takror e'tirof etishdi. Halol, shaffof, beg'araz va ta'masiz ishlaydigan, yuragi katta onslardan tashkil topgan bu jamaoa xodimlariga tashakkur bildirishdi.

- Asosiy yo'nalishimiz sog'lom avlodni shakhlantirish, onalik va bolalik muhofazasi, farzandlarimizning aqlan, jismonan sog'lom bo'lib o'sishlari uchun shart-sharoit yaratishni o'z ichiga oлgan, - dedi anjumunda so'zga chiqqan "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi viloyat bo'limi rahbari, "Do'stlik" ordeni sohibi Rahima Rahmonova.

- Fond tomonidan 1996-yildan hozirga qadar qator tashkilotlar ko'magida viloyat, shahar markazlarida olisda istiqomat qiladigan 27 ming 120 ta oilanlan salomatligi va undagi ijtimoiy holat o'rganildi. 600 mingga yaqin ona va bolalar tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi.

2009-2023-yillar davomida Germaniya va Shvetsariya davlatlari grantlari evaziga tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan 200 nafarga yaqin bolada bepul operatsiya amalga oshirildi. Shuningdek, Germaniyaning xalqaro "Friedensdorf International" fondi bilan hamkorlikda 200 yaqin bolalarda turli darajadagi nogironlikning oldini olish imkonini beruvchi operatsiyalar Germanianing o'zida o'tkazildi.

Faqat bulari emas, o'tgan 30 yil mobaynasi "Sog'lom avlod uchun" bolalarining sog'lom tug'ilishi yo'lda qator targ'ibot ishlari amalga oshirildi, "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida yashovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, ularga ham zarur yordam ko'rsatishdi. Viloyatning barcha hududlarida o'nlab xastaliklarga qarshi dori-darmonlar, zarur tibbiy anjomlar, kiyim-kechaklar tarqatdi. Bu ishlarning barchasini yoz-sak, maqola raqamlar, hisobot bilan to'lib qoladi. Muhimi, bu yordamlar o'z vaqtida tegishli manzilga yetib borganida.

Balki sarlavhadagi fikr ko'pchilikka erish tuyular, ammo bu bitta kuzatuva nati-jasi emas, o'nlab hamkor tashkilotlarning ham e'tirofidir. O'zining 30 yillik faoliyatiga aytigan bunday iliq so'zdan ortiq mukofot bo'limasa kerak.

Gulruh MO'MINOVA.

Kartoshkachilikda Koreya tajribasi

Koreya Respublikasining Xalqaro o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti taklifiga binoan yaqinda Janubiy Koreya respublikasida o'quv-amaliy seminarlarda ishtirot etdi.



Hozirda ushbu davlat bilan hamkorlikda umumiy qiy-mati 4,3 million AQSH dollar bo'lgan "O'zbekiston karto-shka urug'chiligi rivojlantirishda kadrlar salohiyatini oshirish" xalqaro loyihasi amalga oshirilmoqda.

Loyha Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik va-zirligi, Janubiy Koreya Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va qishloq hududlarini rivojlantirish va-zirligi (MAFRA) hamda Koreya

qishloq hududlarini rivojlantirish korporatsiyasi (KRC) hamkorligida ishlab chiqilgan.

Dastlab Koreya qishloq hududlarini rivojlantirish korporatsiyasi (KRC) va Xalqaro o'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot instituti yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuv tashkil etdi. Unda loyihami amalga oshirish bosqichlari, Koreya kartoshkachilik sanoati va O'zbekiston karto-shka urug'chiligi hamda kartoshka sanoatini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha tajriba almashdik.

Shuningdek, Osiyo minta-

qasida yetakchi hisoblangan "Nongwoo Bio" urug'chilik ilmiy-tadqiqot institutida bo'ldi. Mazkur institut qishloq xo'jaligi urug'chiligi sohasida yetakchilarindan hisoblanadi va hozirgi kunda Turkiya, Hindiston, Indoneziya va Xitoy kabi mamlakatlarda ham ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib bormoqda.

Shundan so'ng Koreya tog'oldi hududlarida qishloq xo'jaligi tadqiqotlari ilmiy-tadqiqot institutida bo'ldi. Koreya Respublikasi kartoshka urug'chiligi hamda kartoshka chilik to'liq zanjiri to'g'risida institut direktori va yetakchi olimlari tayyorlagan taqdimatlar bilan tanishdik.

O'zbekistonda Koreya tajribasiga asoslangan holda kartoshka urug'chiligi, kartoshka yetishtirish hamda kartoshka sanoatini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashdik.

Safarimiz yakunida Janubiy Koreya davlati bilan ikki tomonloma hamkorlik masalalarini kelishib oldik. Loyha doirasida 2023-2027-yillarda O'zbekistonda kar-

toshka urug'chiligi sohasida Koreyaning ilg'or tajribalari joriy qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizda kartoshka urug'chiligi sohasida kadrlar salohiyatini oshiriladi. Mutaxassislarimiz Koreya Respublikasida kartoshka urug'chiligi tizimini o'rganish bo'yicha malaka oshiradi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlari instituti hududida 2,8 gektar maydonda urug'chiligi tizimining to'liq sikilini qamrab olgan ilmiy-tadqiqotlari laboratoriysi hamda zamonaviy issiqxonasi tashkil etiladi. Koreyalik professorlar institutda talabalarga ta'lim beradi.

Institutda yaqinda tashkil etilgan "O'zbekiston-Koreya" kartoshka urug'chiligi markazlari talabalar, tadqiqotchilar, olimlar uchun tadqiqot markazi vazifasini o'taydi. Koreyalik hamkorlar bilan birgalikda mahalliy kartoshka navini yaratish bo'yicha ishlar yo'lg'a qo'yildi.

Shavkat HASANOV,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlari instituti rektori.

Paxtachilik ixtirochi

vertolyot yasamoqchi

Ko'pincha ixtirochilar qishloqdan chiqadi deyi-shadi. Nega deganda, qiyin sharoitda qulaylik yaratish uchun yangilik qidirishadi. Paxtachi tumanidagi Qarnab ota mahallasida yashovchi Bahriiddin Xudoiberdiev ham doim odamlar ning og'irini yengil qiladigan uskunalar yaratib kelgan.

Qahramonimiz 68 yoshda. Mahalla ahlining elektr jihozlari va yengil avtomobilari ta'mirlash bilan birga, kichik ixtiroli ham.

- Ustachilik qonimda bor, ota-bobolarim ham usta bo'lgan, - deydi Bahriiddin aka. - Ilk ixtiroli maktabda o'qib yurgan paytalarida boshlangan. Onam rahmatli qo'lda ip yigirardi. Ishlari oson bo'sin deb dastlab "urchuq" - qo'lda ip yigiradi-gan uskuna yasab bergandim. Keyinchalik uskunaga elektrmotorni ham o'rnatganman. Ba'zan shu kabi kichik ixtiroli dan murakkabrog'iha ham qo'lib urib ko'raman.

Sakkiz yil haydovchilik qildim, kasb-hunar kollejida traktor va avtomobilsozlikdan dars berdim. 23 yil "Ketmonchi" konida elektrik bo'lib ishladi. Bo'sh vaqtlarida shamol generatori, xolodilnik, elektr uskunaları, duxovka, stanok va boshqa shu kabi qurilmalarni yasanaman.

Bundan 10-15 yil oldin qishloqda elektr toki juda ko'p o'chardi. Shuning uchun o'zim elektr ishlab chiqaradigan shamol generatori yaratdim. Uskunani yasashda yengil avtomashina generatoridan foydalandin va 12 volt tok berdi. Uni kuchlanish uchun akkumulyator qo'yib, diametri uch metri parrak yasadim. Uskuna 12 volt tokni 220 volta yalantirib berardi. O'sha vaqtarda kunlab elektr bo'limasa ham biz ke-



cha-kunduz yorug' uyda, televizor ko'rib o'tirardik.

Bahriiddin aka yaqinda hech qanday elektr toki va gazzsiz, uy sharoitida ishlaydigan pech yasagan. Bu pech qishda ham, yozda ham quyosh nuri bilan ishlaydi va unda ovqat ham pishirish mumkin.

- Bir kuni xorij telekanalida oilaviy sayohatga chiqqan bir oilaning quyosh nurida ovqat pishirganini ko'rib qoldim, - deydi so'zida davom etdi Bahriiddin aka. - Menda ham quyosh nurida ovqat pishirish uskunasini yaratish istagi paydo bo'ldi. Uskunani yasash uchun muzlakchik tunukasining ichiga "steklovata" va alyuminiy falga joylashtirdim. Tashqi qismiga shisha oynalar o'rnatdim va uni quyosh nuri tegadigan joyga qo'ydim. Oynalar tashqaridagi issiqliklari upular kabi ichkariga olib kirdi va 100-200 darajagacha issiqlik yetkazib berdi. Duxovkada tuxum, non, go'sht va boshqa taomlar pishdi. Ushbu qurilmani quyosh nuri va uning harakatlanshini hisobga olib, kattaroq qilib ham yasash mumkin.

Bahriiddin aka bilan suhbatlashar ekanmiz, u kishi doim yangilik qilishni, nimadir yaratgisi kelishini va yaqinda vertolyot yasab, unda uchib ko'rish niyati borligini aytdi.

- Bir kishilik qilishni, nimadir yaratgisi kelishiga ishonaman. Faqat zavodda tayyorlangan bir metr diametrli parak topishim kerak. Xullas, uch metr balandlikka bo'lsa ham uchish niyatim bor.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Qoloq maktablarga metodik yordam ko'rsatilyapti

Keyingi yillarda "qizil maktab"larga metodik yordam ko'rsatish Samarcand tajribasi sifatida viloyatdagi oly ta'lim muassasalariga yuklanmoqda. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutiga Urgut tumanidagi ayrim maktablar birkirtilgan. Shulardan biri Vag'ashti mahallasidagi 9-umumiy o'ta ta'lim maktabidir. Maktab 1020 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, hozirgi kunda 1323 nafr o'quvchi tahsil olmoqda.



O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutasi va SamDU Urgut filiali rahbarlari boshchiligidagi pedagoglar guruhi ushbu maktab faoliyatini yaqindan o'rgandi. Shuningdek, yogori sinf o'quvchilar bilan davra suhbat tashkil etildi. O'quvchilardan qanchasi oly ta'lim muassasiga o'qishta kirmoqchi ekani so'ralganda, dastlab ularning atigi 3 nafr o'qish instagi borilgini bildirdi. Ushbu mahallada istiqomat qiluvchilar negadir farzandlarini, ayniqsa, qizlarini oly ta'lim muassasalarida o'qitmas edan. O'quvchi qizlarning aytishicha, ular maktab davridayoq unsashtirib qo'yilarakan. Ba'zi ota-onalar qizlarini maktabga yuborishni istamas emish.

Bundan tashqari, maktab binosining eskligi, yaqin yillarda ta'mirlanmagan, undagi o'quv jihozlari ham eskririb ketganligi ushbu hududda ta'limga munasabat yaxshi emasligini anglatadi. Davra suhbatida bugun jamiyat kundan kunga taraqqiy etib borayotgani, bilim olmagan inson zamondan ortda qolishi, muvafaqiyatga erishishning yo'lli o'qish, o'rganish ekanligi o'quvchi yoshlarga tushuntirildi. Ota-onalar bilan suhbatlashishga kelishildi.

- Ikki yil oldin kelganimizda urgutlik ota-onalar shu tumanidan oly ta'lim muassasasi oshib bersangizlar, qizlarini o'qitamiz, degandi. Mana, Samarqand davlat universitetining Urgut filiali ochildi, - deydi O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti rektori, falsafa fanlari doktori, professor Shahzoda Negmatova.

- Biz bugun buning natijasini bilgani keldik, haqiqatan ham endi urgutlik yoshlar o'qishini oly ta'limda ham davom ettiradi. Tuman yoshlari maktab, bog'cha va boshqa tashkilotlarda mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni qondradimi? Buyuk ajodalimizning tarixini o'rganib chiqqanizimda, ularning onalari ilmlil, ma'rifatli bo'lganiga guvohmiz. Ba'zi ota-onalar "Qizlar nima uchun o'qishi kerak?" degen savolni berishadi. Bunday kishilarga keyingi avlodni ma'rifati qillishi uchun o'qishi kerak, deb javob beraman.

- Respublikanigan hamma tumanida ham oly o'quv yurti yo'q, Urgutda bor. Respublikanigan hamma hududi-

da erkin iqtisodiy zona yo'q, Urgutda bor, - dedi SamDU Urgut filiali direktori Quvondiq Yarashev. - Nasib qilsa, ilm-fan sohasida ham Urgut tumanini yuqori o'rinnarga chiqadi. Bizga yaqin 4-5 yil ichida oly ma'lumoti kadrlar juda ke-rak bo'ldi. Shuning uchun biz o'zimiz tashabbus ko'rsatib, tumandagi 139-, 86-, 119-, 125-, 134-, 135-, 144-, 145-, 153-umumta'lim maktablari metodi yordam ko'rsatayapmiz. Haftada bir kun o'qituvchilarimiz ushbu maktablarda bo'lib, ularning faoliyatini o'rganib, kamchiliklarni tuzatayapti. Shuningdek, ushbu maktablarga filialimizning elektron kutubxonasidan foy

YURT TARAQQIYOTI UCHUN BIRLASHGAN JAMOA

Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi

Samarqand viloyat birlashgan qo'mitasi barcha yurtdoshlarimizni, xususan, tarmoq tizimidagi ishchi-xodimlarni

11-NOYABR – KASABA UYUSHMALARI KUNI

bilan tabriklaydi.

Barchangizga sihat-salomatlilik, baxt va omad, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, ishlaringizda fayzu baraka tilaymiz. Doimo sog'-omon bo'ling, azizlar!



Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi Samarqand viloyati birlashgan qo'mitasi 2020-yil 23-oktabrda tashkil etildi.

Dastlab 93 ta korxona, tashkilot va muassasaning 5954 nafr a'zolarini birlashtirgan bo'lsa, bugunga kelib a'zo tashkilotlar soni 138 taga yetdi. Ulardagi kasaba uyushmasi a'zolari soni esa 12363 nafarni tashkil etadi.

Tarmoq tizimidagi a'zolari eng ko'p bo'lgan boshlang'ich tashkilotlar Samarqand ixtisoslashtirilgan san'at maktabi (406), Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi (241), "Ipak yo'lli" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti (181 xodim yil 960 talaba), Samarqand davlat muzey qu'raxonasi (241), Toyloq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi (220) hisoblanadi. Qolgan tashkilotlarda 25 nafardan 110 nafargacha a'zo bor.

Kasaba uyushmalari tizimida turizmni rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston bo'y lab sayohat qiling!" dasturi doirasida joriy yilda 750 nafr ishchi-xodim hamda ularning oila a'zolari respublikamizning diqqatga sazovor qadamjolari va tarixiy shaharlariga sayohat qildi.

Tarmoq tizimidagi 10 ta tashkilotdan 18 nafr pensiya yoshidagi xodimlarga moddiy yordam berildi va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Tarmoq tizimidagi 41 ta tashkilotdan 46 nafr xodimga yubiley sanalari munosabati bilan qimmatbaho sovg'alar topshirildi. 116 ta tashkilotdan 200 nafr xodimga, shuningdek, 5 nafr nogironligi bo'lgan xodimga moddiy yordam ko'satildi.

Kasaba uyushmasi a'zolarining 31 nafr ota-onalari kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda imtiyozli sog'lomlashtirildi, ikki nafr ishlaydigan keksalar bepul sog'lomlashtirildi.

Hududlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida bir necha bor besh ming qadam yurish marafoni o'tkazildi.

Tarmoq tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning 41 nafr farzandlari uchun o'quv qurollari, darsliklar xarid qilindi.

2 nafr ayol xodimga oylik maoshi saqlangan holda ish vaqtiga haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qilib belgilandi.



Mehnat jamoalarida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi"ning "Insonqa e'tibor va sifatiga lim yili"da amalga oshirishga doir Davlat dasturining mazmun-mohiyati va ahamiyatini targ'ib etish bo'yicha yil davomida davra suhbatlari va ma'naviyat soatlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksining mazmun-mohiyati, yangi jamoa shartnomalarini tuzish hamda mehnatni muhofaza qilish mavzularida korxona va tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida seminarlar tashkil etildi.

8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "Muqaddas ayol" nomli bayram tadbirdida 106 nafr xotin-qiz ishtiroti ta'minlandi. 506 nafr xotin-qizga bayram sovg'alarini berildi. 15-aprel - Madaniyat va san'at xodimlari kuni munosabati bilan 50 nafr xodimga, 18-may - Muzeylar kuni munosabati bilan 10 nafr xodimga bayram esdalik sovg'alarini berilgan bo'lsa, iyun oyida 100 nafr xodim uchun xonanda Sevinch Mo'minova konserti tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan 22-avgust kuni 101 nafr xodimning xonanda Muhammadziyorning "Tabibim" konsert dasturiga tashrifi yushtirildi.

1-oktabr - Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan viloyat musiqali drama teatridda tashkil etilgan "Bahodir Yalangto'sh" spektakliga 50 nafr, xonanda Dilshod Rahmonovning "Turfa gullar" nomli konsert dasturiga 150 nafr hamda xonanda Imronning "Ko'rmasam bo'imas" nomli konsert dasturiga xodimlarning tashrifi yushtirildi.

21-oktabr - O'zbek tiliga Davlat tilli maqomi berilgan kun munosabati bilan tarmoq tizimidagi tashkilotlarda "Muqadassan muruvvatim - ona tilim", "Ona tilim - jonus dilim", "Til - millat ko'zgusi" mavzularida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI MA'MURIYATI VA KASABA UYUSHMA QO'MITASI



*kasaba uyushmalari xodimlari va tibbiyat sohasida
mehnat qilayotgan hamkasblarini*

**11-NOYABR
12-NOYABR**

**KASABA
UYUSHMALARI KUNI
TIBBIYOT
XODIMLARI KUNI**

bilan tabriklaydi.



*Mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilayotgan
kasaba uyushmalari xodimlari hamda xalqimiz salomatligi yo'lda chin dildan
mehnat qilayotgan tibbiyat xodimlariga uzoq umr, sihat salomatlik, mas'uliyatlari va
sharaflari ishlardan ulkan zafarlar tilaymiz.*

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz hamkaslar!

Mardon Rayimqul juvozchining
to'ng'ich farzandi bo'lgan. Paxta-
ching Zarafshon daryosiga yaqin
Xarsang qishlog'ida yashashgan,
juvozchilikdan kun ko'rgan. Tirik-
chiligidan amallab o'tkazgan.
Rayimqul bobo Karmana paxta
tozalash zavodida 13 soatgacha
ishlagani, tinka-madori qurib uya
qaytgani alam qildimi, bolalariga
o'qish imkoniyatini berdi.



Mardon boboning xazinasi

Paxtachilik fidoyi inson, qatag'on qurban M.Rayimqulovni yo'qlab

Qolaversa, Mardon yoshiga nisbatan ancha tetik rivojlandi. Farosati, zehni ham o'tkir. Biror ishni bir marta qilib ko'rsatsang, binoyidek ud-dal ketidi. Ota-onasining zamona haqidagi suhbatlarini ham berilish tinglaydi. Shuning uchun er-xotin ana shu farzandiga katta umid bog'ladi.

Rayimqul bobo Mardonni o'zi ishlayotgan paxta tozalash zavodiga olib ketdi. Ziyarak o'spirin u yerdagi ishchilar davrasida yana ham o'sdi, ishlash barobarida dunyodan xabardor bo'ldi. Bir-ikki safdoshiga qo'shilib, savodsizlikni bitirish maktabida o'qidi, otasining qistovi bilan muallilmardan qo'shimcha tahsil oldi. Ishda ham Mardon tezda nazarga tushdi. Shu sababli bir yil ichida o'sha davr yosholaring avangardi - kimsomol safiga qabul qilindi. Keyin Sankt-Peterburgdagidagi bir yillik maxsus harbiy maktabga o'qishga yuborildi. Darvoqe, u bu yerda o'zbek armiyasining bo'lg'usi asoschilaridan biri Mirkomil Mirsharov bilan birga tahsil oldi. Maktabni muvaffaqiyatlil tamomlagach, 126-tog' kavaleriya polkining 3-eskadrioniga siyosiy komissari etib tayinlandi. Bu es-kadrooning vazifasi Chorjo', Qarshi, Nurota va Xatirchi hududlari aholisi xavfsizligini ta'minlashdan iborat edi.

M.Rayimqulov safdoshlari qatorida bu vazifani sidqidildan bajardi va M.Frunzening qo'llidan qilich sovg'asini oldi.

1926-yilda armiya safidan zaxiraga bo'sagan 23 yoshli Mardon Komandir Toshko'prik (hozirgi Paxtachi) va Narpay voloslarida yer-suv islohoti o'tkazish, komsomol tashkilotlari, batrak va qo'shchi uyushmalari tuzish, xotin-qizlarni ma'rifatga chorlashga safarbar etildi. U Totkent, Mirbozor, Ziyovuddin va Sultanobodda yangi turmushni barpo etish borasida odamlar o'tasida chinakam ibrat ko'rsatdi. Shuning uchun o'sha qishloqlarning katta yoshli aholisi hozirgacha Mardon bobo nomini hurmat bilan tilga oladi.

Fidoyilik, tajriba e'tiborsiz qolmadni. Uni 1928-yilda Xatirchi tumani partiya qo'mitasiga bo'lim mudiri, yetti oydan keyin esa O'zKP Markaziy Qo'mitasining tumandagi tashkilotchisi etib tayinlashdi. 1930-yilning may oyidani Kattaqo'rg'on, 1931-yilning yanvaridan esa Narpay tumanida partiya qo'mitasi birinchi kobi bo'lib ishladi. O'shanda uz Zarafshon okrugi partiya qo'mitasi byurosi hamda Plenum a'zosi etib saylangandi.

Okrug tugatilgach, M.Rayimqulov Narpay, keyinchalik Qorako'l tumanlari partiya narozatori komissariysi va ishchi-dehqon inspeksiysi raisi bo'lib ishladi.

Olim XO'JAYEV.

ENG CHIROYLI QO'G'IRCHOQ

Kechagidek esimda, dadajonim oylik olgan kuni do'kondan menga qo'g'irchoq olib keldi. Yugurib peshvoz chiqdim, quvonchimning cheki yo'q edi. U kishi bag'riga bosib, o'yinchoqni qo'limga berib, dedi:

- Ona qizim, mana, senga do'kondagi eng aqlli, eng qimmat qo'g'irchoqni olib keldim. O'ziyam bitta ekan!

- U aqllimi, dadajon?

- Albatta, qizim. Hamma aytganining qiladi, hatto senga qo'shibil qo'shiq aytadi, uy supuradi, birga uylaydi...

- Shuning uchun qimmatmi? - so'rayman bolalarcha soddalik bilan.

- Ha-da, odobli, mehnatkash qo'g'irchoqlar qimmat turadi, qizim.

O'sha voqeaga ham chorak asr o'tibdi. Donishmand otagini shu gapi bilan menga jamiyatda faqat chiroylar emas, balki intizomli, ishtiyoliq kishilargina qadri bo'lishini tushuntirgan ekans. Eslayman, she'r yodlasam, shu qo'g'irchoqni qo'limda ushlab aytardim, go'yo u men bilan hamovoz edi. O'zimcha uyda supurgini ushlab, uylan uyni tozalardim. Men qo'g'irchog'imga "aql" bo'laman

deb o'zim ko'p narsani o'rgangan ekanman.

Bugun onaman. Farzandlarimga o'yinchoq keltirsam, ularning aqlli, foydali ekanini aytib beraman. Aqlini peshlaydigan, fikrashga o'rgatadigan o'yinchoqlar olib berishga harakat qilaman. Ular ham menga o'xshab qo'li da o'yinchoq'i bilan she'r o'qishadi, "barakalla!" desam, "o'yinchoq'imga ham rahmat aytинг", deyishadi. Ular bolalar bog'chasida "yomon" o'yinchoqlar ham borligini aytganda xursand bo'laman, demak, hozirdanoq qiyoslashni o'rganishyapti.

Nafaqat farzandlarim, o'zim ham qaysi ishni boshlamay, otamning "mehnatkash, aqli qo'g'irchoqlar qimmat bo'la'di", degan gapini eslayman. Atrofimdagilar uchun qimmat bo'lishga intilaman, mashaqqatdan, mehnatdan qochmayman, har kuni nimadir o'qishqa intilaman.

Shuni angladimki, ibratni ko'ra bilish, anglay bilish muhim ekan. Negaki, qimmatli odam bo'lishga intilishni men dadajonimdan o'rgandim, endi ana shunga munosib bo'lishga intilib yashayman. Bunday tuyg'u barchaga nasib etsin!

Ozoda ABDUSAMATOVA,
Samarqand veterinariya meditsinasiga, chovchachilik va biotexnologiyalar universiteti akademik litsseyi o'qituvchisi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 436 nusxada chop etildi. Buyurtma 605. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshhanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Zahmatkash olim, mohir pedagog

Samarqand davlat universiteti dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi Tolibjon Bo'riev shu kunlarda o'zining yetmish yoshini nishonlamoqda.

T.Bo'riev 1953-yil 10-noyabrdagi Samarqand shahrida tug'ilgan. 1969-yil Samarqand shahridagi 22-o'rta maktabni a'lo baholar bilan tugatib, Samarqand davlat universitetining mexanika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi. 1975-yil shu fakultetni imtiyozi diplom bilan bitirdi. Yoshi mutaxassis dastlab Oqddaro tumanidagi 41-maktabda matematika va fizika fanlaridan yoshlarga saboq berdi.

Talabalik yillarda erishgan muvaffaqiyatlari uchun uni professor I.Kukles SamDU matematika fakultetining aspiranturasiga taklif qildi. Taklifidan ruhlangan T.Bo'riev ilmiy-tadqiqot ishlarini 1977-yilden 1980-yilgacha Rossiya Fanlar akademiyasining Ilmiy tekshirish-hisoblash markazida, professor A.Molchanov rahbarligida davom etтиrdi. 1984-yil Moskva biofizika instituting ixtisoslashgan ilmiy kengashida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

So'ng T.Bo'riev O'zFA Kibernetika ilmiy-tekshirish institutida ilmiy xodim, Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida katta o'qituvchi, SamDUning fizika fakulteti oliy matematika kafedrasida assistant, dotsent lavozimlarda talabalarga matematika sirlarini o'rgatdi. 1993-yildan matematika fakultetining differential tenglamalar kafedrasida, 2012-yildan hozirgi vaqtga qadar shu fakultetning algebra va geometriya kafedrasoti dotsenti lavozimida mehnat qilib kelmoqda.

T.Bo'riev dinamik sistemalar bo'yicha erishgan ilmiy natijalari haqida AQSHning Yuta shtatidagi xalqaro ilmiy-amaly anjumanda ma'ruzalar qildi. 2003-yili Germaniyoning DAAD fondi granti asosida Potsdam universitetida uch oy ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Natijada T.Bo'riev xorijiy va respublikamizning nufuzli ilmiy jurnallarida 40 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qildi.

Hozirgi vaqtida ustoz talabalarga chiziqli algebra, analitik geometriya fanlaridan maruzalar o'qib kelmoqda. Keyingi yillarda uning shu fanlarga oid o'ndan ortiq darsliklari va o'quv qo'llanmalari chop qilinib, talabalarning asosiy darsliklariga aylangan. U matematika fakulteti bakalavrlarining malakaviy bitiruv ishlari va magistrarning disser-



tatsiyalariga ham ilmiy rahbarlik qilmoqda.

Tolibjon Bo'riyevning oilasi mahalladagi namunali oilalardan biri. Rafiqasi Zarina Ochilova bilan ikki o'g'il, ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Bugun Tolib aka va Zarina yanga 12 nevaraning sevimli bobo-si va buvisi sifatida umrguzaronlik qilishmoqda.

Zahmatkash olim, mohir pedagog Tolibjon Bo'riyevni muborak yoshi bilan tabriklaymiz. Hamkasblar va shogirdlar nomididan ustozga sihat-salomatlik, ilmiy ishlariiga muvafaqiyat tilaymiz.

Haydar RO'ZIMURODOV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Burxonova Munavarga (2015-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Kasimov Rashitga (2020-yil 16-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Niyazova Mukadasga (1999-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Djalilova Mutabar Burxonovnaga (2016-yil 19-yarvanda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovska notarial idorasida marhum Toxtamisheva Moxira Zabiyevna (2021-yil 3-noyabrdaga vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovska notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovska notarial idorasida marhum Tuxtamishhev Ashur Abdullaga (2000-yil 19-sentabrdaga vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovska notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Zakirova Anvarga (2009-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'ramyz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti matematika fakulteti hamda differentiasial tenglamalar kafedrasida jamoalari o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinosbari Farhod Tursunovga otasi

Ro'ziqul TURSUNOVning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda